HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

THE STORY OF "MUQBIL AND MUDBIR" FROM THE WORK "LISON UT-TAYR" [CHAPTER 53]

Jo`rayeva Dilovarxon
dilovarxonjorayeva05@gmail.com
Student of Kokand State University

Abstract: This article analyzes the effective pedagogical methods of teaching the story "Muqbil and Muqbir" to lower and upper grade students in support of Alisher Navoi's work "Lison ut-Tayr". The issues of revealing the content of the story in a manner appropriate to age characteristics, moral and ideologically, and considering it using interactive methods, cluster, debate and figurative analysis methods are highlighted. , Methodological foundations of critical thinking, respect for spiritual values and observation of artistic diversity in work are shown.

Keywords: Alisher Navoi, Lison ut-tayr, story, friendship, selfishness, pedagogical technology, humility, interactive method, artistic analysis, moral education, mysticism.

Lison ut-tayr 1498 – 99-yillarda fors shoiri Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari ta’sirida yozilgan. Navoiy asar syujeti va bosh g‘oya xususida Attorga izdoshlik qilgan. “Lison ut-tayr” – falsafiy doston bo‘lib, shoir unda majoziy obrazlar, qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvufiy g‘oyalarini ifodalagan.

Asar 3598 baytdan iborat bo‘lib, aruz vaznining **ramali musaddasi maqsur** vaznida yozilgan. Asardagi boblar alohida epizodlardan, savol-javoblardan, kichik hajmli hikoya va masallardan tashkil topgan

T/R	ASLIYAT	NASRIY BAYONI
1	Tushtilar bir yo'l aro ikki **rafiq,** Bir edi yo‘lsiz, biri **sohibtariq**.	ikki **o'rtoq** yo‘lga tushdilar, ulardan biri ustozi yo‘q beilm, ikkinchisi esa **tariqat bilimdoni** edi.
2	Biri **noqisvash**, biri **komil** sifot, Onga Mudbir, munga Muqbil erdi ot.	Biri **nuqsonli,** ikkinchisi esa **komil sifatlar egasi** bo'lib, unisining oti Mudbir, bunisining oti esa Muqbil edi.
3	Har biriga zot edi oti kibi, Ul sifatkim, ot edi zoti kibi.	Ulardan har birining ismi jismiga munosib bo'lganidek, jismi ham ismiga mos edi.
4	Muqbil aytur erdi **ahlillohdin,** Dinda **xayli** komilu ogohdin.	Muqbil **Allohning do‘stlari** haqida, **dindagi** komil va ogoh kishilar to'g'risida so'z aytar edi.
5	**Ahli nuqsondin** edi Mudbirg'a so'z, O'ylakim but vasfidin kofirg‘a so'z.	Mudbir esa butni vasi etuvchi kofirlarga o'xshab faqat **nuqson ahli** haqida so'z yuritardi.
6	Dardu so‘zu holdin ul **nukta** deb, **Lavnu** zebu **rangdin** bu **harza** deb.	Unisi dardu o'rtanishlardan **gapirsa,** bunisi **rang-u bo‘yoqlar** haqida **valdirar**

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

		edi.
7	Topmayin bir-birlaridin hech **bahr,** To **namudor** o'ldi bir **farxunda** shahr.	Ular bir-birlaridan hech **bahra** topmay ketayotganda qarshisida **qutlug'** bir shahar **namoyon bo'ldi.**
8	Ikkisi oni g'animat bildilar, Bir-birisidin **ravon** oyrildilar.	Ikkisi buni g'animat bilib, tezda bir-birlaridan ajralib ketdilar.
9	Bu biriga **ko'yi faqr** erdi taraf, Bo'ldi ul bir ozimi **baytul-lataf.**	Birisi **faqrlar yashaydigan ko'chaga** birisi **fohishaxonaga** yo'l oldi.
10	SHah muni ko'rmakka keldi **sarfaroz,** Ko'rguzub yuz hurmatu **ajzu niyoz.**	Mamlakat shohi **boshini baland ko'targan holda hokisorlik bilan** unga yuz hurmat va ehtirom **atab**, Muqbilni ko'rgani keldi.
11	Onda erdi shahki, bog'lab ustuvor Mudbiri **noqisravishni** xoru zor -	Muqbil shoxning suhbatiga sazovor bo'lar ekan, unda Mudbir **yomon xulqi** bilan xor-zorlikda edi.
12	Kelturub arz ettilar xayli **asas,** Kim ichib bu kecha **jam'i bulhavas-**	Bir kecha **bir to'da bezorilar** ichib, janjal ko'targani uchun **soqchilar** ularni ushlab olib kelib, ularning ustidan shoxga arz qilishdi.
13	Voqe' o'lmish qonu bu bois emish, Kim muni **maqtul badhay'at',** dermish.	Arzning ma'nosi shunday ekanki, qon to'kilishiga sabab Mudbirni bir u jabrlangan kishi "Sen **yoqimsiz xunuk**san" degan ekan.
14	Muncha so'zga bu **laimi xudpisand,** Onga xanjar birla yetkurmish **gazand.**	Bunday so'zga bu **xudbin nokas** unga xanjar bilan **zarar** yetkazibdi.
15	Shoh eshitgach bo'ldi **adi amrig'a** xos, Qildi Mudbirg'a ravon hukmi qasos.	Shoh buni eshitgach, odillik ko'rsatib, Mudbirdan qasos olish haqida hukm chiqardi.
16	**Xudshikangas yetti** ul oliy maqom, **Xudnamo** topti bu yanglig **intiqom.**	**Kamtar odam** oliy maqomga yetdi, **xudbin johil** esa shu yanglig' **qasos** topdi.

ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" DOSTONIGA KIRITILGAN " MUQBIL VA MUDBIR " HIKOYATINI QUYI SINF O'QUVCHILARIGA O'RGATISH USULI

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida materiallar hikoyatlarni quyida sinf o'quvchilariga bir nechta interfaol vositalar yordamida mumkin. Ushbu metodlarni **"Muqbil va Mudbir"** hikoyati misolida ko'rib chiqildi.

Darsning maqsadi: Hikoyatni o'quvchilarga sodda tilda tushuntirish, yaxshi xulq va yomon odatlarning oqibatini ko'rsatib berish. Do'st tanlashda adashmaslik kerakligini o'rgatish.

Kirish: Dasrning avvalida o'qituvchi bugun o'rganilishi lozim bo'lgan hikoyatning mavzu va g'oyasi haqida qisqacha ma'lumot beradi:

Yaxshi xulq doimo har yerda aziz bo'lishi, yomon xulq esa qanday oqibatlarga olib kelishi o'rgatiladi.

1-BOSQICH. O'QUVCHILARNI DARSGA QIZIQTIRISH

1."Provokatsion savol" metodi

O'quvchilar diqqatini jamlash uchun o'rtaga savol tashlanadi

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

1. Ism inson taqdirini belgilaydimi?
2. Haqoratga o‘lim bilan javob berishni qanday oqlash yoki qoralash mumkin?

Ushbu savollarga o‘quvchilar erkin fikr bildiradilar va bu orqali hikoyatdagi masalalarni tahlil qilish uchun ularda tushuncha hosil bo‘ladi.

2-BOSQICH. ASOSIY QISM

1. Hikoyatni ifodali o'qish

O'quvchilarga avval hikoyatning asl matni, so'ngra soddalashtirilgan nasriy bayoni ifodali qilib o'qib beriladi. Matndagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar izohlanadi.

Masalan:

1. **Nafs** – yomon istak, insonni yomon yo'lga boshlovchi ichki istak
2. **Riyo** – o'zini yaxshi ko'rsatish, aslida boshqacha bo'lsa ham odamlarni aldash
3. **Komil inson** – dono, halol va ma'naviy yetuk shaxs

Bu so'zlar

2. “Toifalash jadvali” metodi

Topshiriq: Hikoyatdagi ikki xil hayot yo‘lini tahlil qiling. Qahramonlarning ismi, fe’l-atvori va tanlagan manzillarini quyidagi jadvalga toifalab joylashtiring:

O’quvchilar hikoyatda o'ziga xos obrazlar o'rtasidagi farqlarni ajratadilar. Ushbu jadvalni tushunish orqali o'quvchilar hikoyat matni bilan yanada yaqinroq tanishadilar va undagi obrazlardan olingan narsalarni anglab yetadilar.

Hikoyatda qatnashuvchi obrazlar	
Muqbil	**Mudbir**
1. Baxtli **2.** **3.** **4.** **5.**	**1.Omadsiz** **2.** **3.** **4.** **5.**

2. “ Learning apps” elektron progammasi asosidagi metod.

Topshiriq: So‘zlarni guruhlarga to‘g’ri taqsimlang.

O’quvchilar ushbu metod orqali hikoyat matnini yanada aniq tushunish imkoniga ega bo‘ladilar. Metod o‘quvchilardan diqqatni bir joyga jamlash va tezkorlikni talab qiladi.

Ushbu metodda o'quvchilar elektron doska, kompyuter yoki mobil qurilmalar orqali ishlaydi.

https://learningapps.org/watch?v=puartu54t26

3-BOSQICH: YAKUNLOVCHI BOSQICH

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Darsning xulosa qismida har bir o‘quvchi quyidagi jumlalarni davom ettirishi kerak:

1. **“Yolg’onchilik yomon odat”.**
2. **“Halollik eng katta boylik”.**
3. **“Nafs odamni yomon yo'l tomon undaydi”.**

Har bir o‘quvchi fikrini eshitilgach, o‘qituvchi hikoyat bo‘yicha yakunlovchi xulosa beradi.

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIGA KIRITILGAN “ MUQBIL VA MUDBIR ” HIKOYATINI YUQORI SINF O'QUVCHILARIGA O'RGATISH USULI

Darsning maqsadi: Hikoyatni o‘quvchilarga sodda tilda tushuntirish, yaxshi xulq va yomon odatlarning oqibatini ko‘rsatib berish. Do‘st tanlashda adashmaslik kerakligini o‘rgatish.

Kirish: Dasrning avvalida o‘qituvchi bugun o‘rganilishi lozim bo‘lgan hikoyatning mavzu va g’oyasi haqida qisqacha ma’lumot beradi:

Yaxshi xulq doimo har yerda aziz bo‘lishi, yomon xulq esa qanday oqibatlarga olib kelishi o‘rgatiladi.

1-BOSQICH: O'QUVCHILARNI DARSGA QIZIQTIRISH

Ushbu bosqichda interfaol usullardan foydalanish mumkin.

1.“Provokatsion savol” metodi

O’quvchilar diqqatini jamlash uchun o‘rtaga savol tashlanadi

Ushbu metodda o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadilar. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildirgandan so‘ng o‘qituvchi quyidagi savollar orqali ularning hikoyat mazmuniga qanchalik tushunganligini aniqlaydi.

Savollar

1. Insonni yuqori darajaga yetaklovchi sifat nimalardan iborat?
2. Insonning ko'rinishi bilan ichki dunyosi o'rtasida qanday farq bor ?

O'quvchilar ushbu savollarga erkin fikr bildiradilar.

2-BOSQICH. ASOSIY QISM

1. “SWOT” METODI

Topshiriq: Hikoyatdagi obrazning **kuchli** va **kuchsiz** tomonlarini aniqlang, mavjud **imkoniyat** hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan **xavf-xatarlarni** tahlil qiling.

Ushbu metod biror voqea yoki qahramonni to‘rt tomondan tahlil qilish usulidir. Unda qahramonning **kuchli tomonlari (S)**, **kuchsiz tomonlari (W)**, **imkoniyatlari (O)** va **xavf yoki to‘siqlari (T)** aniqlanadi. Bu metod yordamida o‘quvchilar hikoyat qahramonining xatti-harakatlarini chuqurroq tushunadilar. SHuningdek, sabab va oqibatlarni tahlil qilib, hikoyadan kerakli xulosalarni chiqarishni o‘rganadilar.

Hikoyatda keltirilgan Mudbir va Muqbil obrazi uchun “SWOT” metodi asosidagi jadval.

T/r	Mudbir	Muqbil	Mudbir	Muqbil
1	S – Kuchli tomonlari	W – Kuchsiz tomonlari	O – Imkoniyatlari	T – Xavf va to‘siqlar

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

2	Kirishuvchan, jasur	Ma'naviy ko'r, johil	To'g'ri yo'lni tanlash imkoni	Ichkilik va ayshu ishrat
3				
4				
5				
6				
7				
8				

2. “ Learning apps” elektron progammasi asosidagi metod.

Topshiriq: berilgan atamalarni izohlari bilan birlashtiring.

O’quvchilar ushbu metod orqali hikoyat matnini yanada aniq tushunish imkoniga ega bo‘ladilar. Metod o‘quvchilardan diqqatni bir joyga jamlash va tezkorlikni talab qiladi.

https://learningapps.org/watch?v=p8c9tdoik26

ır tahlili” metodi

Topshiriq: Berilgan asosiy tushunchalarni diqqat bilan o‘rganing, ularning ma’nosini izohlang va mavzu bilan bog’liqligini tushuntirib bering.

O’quvchilar tahlilga tortilgan tushunchalar ma’nosini topish orqali hikoyat mazmunini chuqur tahlil qila oladi. Qilgan tahlillariga asoslanib hikoyatdan kerakli xulosalarni chiqaradi. O’quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh quyidagi tushunchalardan birini tahlil qiladi:

1. Nafs
2. Riyo
3. Komil inson
4. Zahar-zaqqum (ramziy ma'no)
5. Tuproqning oltinga aylanib (ramziy ma'no)
6. **Tahlil uchun savollar**

1. Bu voqea hikoyatda qanday vazifani bajarmoqda?
2. Bugungi hayotda bunga o'xshash holatlarga misol keltira olasizmi?
3. Muallif bu obraz orqali qanday g'oyani ifodalamoqchi?

Har bir guruh o'z tahlilini taqdim etadi.

3-BOSQICH: YAKUNLOVCHI BOSQICH

Darsning xulosa qismida har bir o‘quvchi quyidagi jumlalarni davom ettirishi kerak:

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

1. **“Hikoyatdan men o‘zim uchun quyidagi xulosalarni oldim: ”**
2. **“Hikoyatdagi eng kuchli ramziy obraz bu... chunki...”**
3. **“Agar inson nafsiga qul bo'lsa,…”**
4. **“Haqiqiy boylik bu –”**

Har bir o‘quvchi fikrini eshitilgach, o‘qituvchi hikoyat bo‘yicha yakunlovchi xulosa beradi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, “Lison ut-tayr” — Navoiy ijodining yetuk tasavvufiy asari bo‘lib, unda qushlar sayohati orqali insonning ruhiy poklanish va komillikka yetish yo‘li ramziy tarzda talqin qilinadi. Asarning badiiy tuzilishi, san’atlarning mohirona qo‘llanishi va ramzlar tizimi Navoiy poetikasining yuksakligini namoyon etadi. Asar tarkibidagi turli hikoyatlar esa bosh g‘oyani yanada ochib beruvchi ma’naviy va axloqiy misollar sifatida xizmat qiladi. Ular qushlarning ichki holatini, izlanishlarini va kamchiliklarini yoritib, o‘quvchini chuqurroq ma’no qatlamiga olib kiradi. Shu bois “Lison ut-Tayr” badiiy jihatdan mukammal, falsafiy jihatdan teran asar sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy.-T.:Akademnashr,2011.
2. Sirojiddinov Sh. Yusupova D.Davlatov O.Navoiyshunoslik.-T.:Tamaddun,2018.
3. Saidakbarova M. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari.-T.:2023.
4. Shamsiyev P.Ibrohimov S.Navoiy asarlari lug‘ati.-T.:G‘afur G‘ulom,1972.
5. Navoiy A.Lison ut-tayr.-T.:G’afur G’ulom,2005.
6. Nurbayeva.M. Alisher Navoiy ijodida ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi.-T.:Fan,2007.
7. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish.-T.:Malik Print Co,2021.
8. Quronov D.Adabiyotshunoslikka kirish.-T.:Fan,2007.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Lison_ut-tayr